



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº S/5 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy

kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 5- maxsus son (Iyun, 2025). - 302 bet.

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Abdullaev Ulug'bek Saydanovich</i>	
O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR	10-14
<i>Shukurillayev Yunus Asrorovich</i>	
BUXORO AMIRLIGIDA CHEGARALARNI QO'RQLASH, QOROVULLIKNI O'TASH VA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MASALALARI T AHLILI	15-19
<i>Rahmankulova Adolat Xushbakovna</i>	
ИСТОРИЯ ГРЕЧЕСКОЙ ДИАСПОРЫ УЗБЕКИСТАНА: СПЕЦПЕРЕСЕЛЕНЦЫ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ЭМИГРАНТЫ	20-25
<i>Xusanov Xabibullo Xakimovich</i>	
O'ZBEKİSTON MILLATLARARO MUNOSABATLARIDAGI ZİDDİYATLI VAZİYAT VA MILLİY MADANIY MARKAZLARNING TASHKIL QILINISHI VA UNİNG TARİХİY AHAMIYATI	26-30
<i>Toshov Kamoliddin, Xurramova Sabrina Abdurashidovna</i>	
THE PROBLEM OF CHILD NEGLECT DURING THE SECOND WORLD WAR	31-38
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i>	
THE FORMATION OF THE PRESS OF THE KhPSR AND THE ESSENCE OF SOCIAL PROBLEMS IN IT.....	39-42
<i>Nazirov Baxtiyor, Mo'minov Nodirbek Botir o'g'li</i>	
IMOMQULIXON DAVRI ASHTARXONIYLAR DAVLATINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA HARBIY-SIYOSIY HAYOTI	43-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>İslamutdinov Vadim</i>	
СОСТОЯНИЕ И НАПРАВЛЕНИЯ СНИЖЕНИЯ БЕДНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	49-54
<i>Melibaeva Gulxon Nazrullayevna</i>	
BENCHMARKING KICHIK INNOVATSION BIZNESNING RAQOBATBARDOSHligini OSHIRISHDA SAMARALI VOSITASI SIFATIDA.....	55-65
<i>Ульмас Ибрагимов</i>	
ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОЙ МОДЕЛИ МАЛОГО БИЗНЕСА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	66-75

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Salomova Hakima Yusupovna</i>	
ME'YOR KATEGORIYASINING BIOSFERANI ASRASHDAGI AMALIY AHAMIYATI	76-83
<i>Djumaniyozova Dilfuza, Ibraximova Dilorom</i>	
YURIDIК TA'LIM VA YURIDIК KLINIKA FAOLIYATIDA AXLOQIY TARBIYA.....	84-90
<i>Djo'raev Anvar Muxamadiyevich</i>	
IJTIMOIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI	91-96

<i>Каримова Гулчехра Самадовна</i>	
ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАДЕРЖКИ ПОЛОВОГО РАЗВИТИЯ У ПОДРОСТКОВ: МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ СИНТЕЗ МЕДИЦИНСКИХ ДАННЫХ И АНТРОПОЛОГО- ЭТИЧЕСКИХ.....	97-101
<i>Гайбуллаев Жавлон Шавкатович</i>	
ДЫХАНИЕ КАК ЗЕРКАЛО ДЕТСТВА: ФИЛОСОФСКИЙ ВЗГЛЯД НА РЕЦИДИВИРУЮЩИЕ РЕСПИРАТОРНЫЕ ИНФЕКЦИИ.....	102-105
<i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i>	
YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI.....	106-110
<i>Taylyakova Feruzaxon Sultanovna</i>	
O'ZBEKISTONDA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	111-116
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i>	
TEXNIK TARAQQIYOT AXLOQIY-STRATEGIK RESURS SIFATIDA.....	117-120
<i>Yarashov Sarvar Norqul o'g'li</i>	
SHAXSNING SHAKLLANISHIGA AXLOQIY IDEALLAR VA JAMIYATDA MAVJUD QADRIYATLARNING TA'SIRI.....	121-125
<i>Shokirov Toxirjon, Maxmudov Shoxrux</i>	
ZARDUSHTIYLIK DININING VUJUDGA KELISHI VA UNDA MADANIYAT VA SAN'AT FALSAFASI.....	126-130
<i>Ахмедова Дилбар, Шавкатова Ширин</i>	
ПЕРВЫЕ ШАГИ В МИКРОМИРЕ: ФИЛОСОФСКИЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ДИСБИОЗЕ И АЛЛЕРГИИ У МЛАДЕНЦЕВ.....	131-135
<i>Kurbanbaeva Ulbosin Jumag'alevna</i>	
EKOLOGIK TARBIYANING GUMANISTIK MOHIYATI.....	136-139
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Muqumova Dilafruz</i>	
IRFONIY SAYRU SULUKNING JA'FAR MUHAMMAD TERMIZIY SHE'RIYATIDAGI MODERNISTIK TASVIRI VA TALQINI.....	140-147
<i>Xo'jamqulov Anvar, Tog'ayeva Shoxnoza</i>	
TAXAYYUL OLAMI TAHILLARI.....	148-159
<i>Murodova Iroda, Khamidov Tokhirjon</i>	
ANALYSIS OF THE LINGUOCOGNITIVE ASPECT OF THE SEMANTICS OF METAPHORICAL INNOVATIONS	160-163
<i>Mamatova Feruza Maxammadovna</i>	
FENOMENOLOGIYA, FENOMEN VA ULARNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI	164-168
<i>Burxonova Gulmira Olimjon qizi</i>	
TURLI TIZIMLI TILLARDA SOTSIOMADANIY BIRLIKLER SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TASNIFI.....	169-172
<i>Berdiqulova Shaxnoza, Ruzmatova Gulnara</i>	
BOG'LOVCHILAR VA TINISH BELGILARINING PRAGMATIK KUCHI: O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA	173-177
<i>Musurmonova Barchinoy Hasan qizi</i>	
FORS MATNSHUNOSLIGI TARAQQIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI.....	178-182

<i>Яркулова Фотима Усмановна</i>	
ОДНОРОДНЫЕ ЧЛЕНЫ ПРЕДЛОЖЕНИЙ	183-186
<i>Jo'raqulova Rayhon Xolboyevna</i>	
О'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LEKSIK BIRLIKLER OBRAZ VA RAMZLARNI YUZAGA KELTIRUVCHI VOSITALAR.....	187-190
<i>Musoeva Hayitgul Urokovna</i>	
THE LINGUO-STYLISTIC ANALYSIS OF THE WORD "HEART" IN ENGLISH LANGUAGE BASED ON THE NOVEL "PRIDE AND PREJUDICE"	191-195
<i>Yuldasheva Kamola</i>	
SINXRON TARJIMA JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN PSIXOFIZIOLOGIK STRATEGIYALAR.....	196-202
<i>Matkarimova Malika Oybek qizi</i>	
HOW TO TEACH ENGLISH USING SIMPLE SCIENCE EXPERIMENTS.....	203-206
Kamola Hatamova	
HUJJATCHILIK TARAQQIYOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	207-210

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Uralov Sharof Urazaliyevich</i>	
PROBATSIYA INSPEKTORLARIGA MA'MURIY BAYONNOMA TUZISH VAKOLATINI BERISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI	211-216
<i>Mamatmurodov Farrux</i>	
METHODS OF RESOLVING DISPUTES ARISING FROM ISLAMIC FINANCE SERVICES. INTERNATIONAL EXPERIENCE	217-222
<i>Муталипова Лола Фархадовна</i>	
СМАРТ-КОНТРАКТЫ И БЛОКЧЕЙН: ВЫЗОВЫ ДЛЯ ДОГОВОРНОГО ПРАВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	223-234
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i>	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СЕКСУАЛЬНОГО НАСИЛИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ .	235-241
<i>Abdullayeva Parvina Baxrilloyevna</i>	
RAQAMLI PLATFORMALARDAGI BANDLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH	242-246

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i>	
RAQAMI IQTISODIYOT SHAROITIDA QORAQALPOQ XALQ AN'ANALARIDAGI MAVJUD PEDAGOGIK USULLAR TRANSFORMATSIYASI.....	247-252
<i>Namozova Dilorom Tursunovna</i>	
MUSIQA TA'LIMIDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI	253-261
<i>Давыдова Руфина Артуровна</i>	
РОЛЬ ГУМАННОЙ ПЕДАГОГИКИ В ПРЕОДОЛЕНИИ АГРЕССИИ И ОТЧУЖДЕНИЯ СРЕДИ ШКОЛЬНИКОВ	262-266
<i>Gaziev Baxromjon Valievich</i>	
OT SPORTIDA MALAKALI CHAVANDOZLARNI TAYYORLASH MUAMMOLARI	267-273

<i>Toshtemirova Mohichehra G'olibjon qizi</i>	
DIZAYN TA'LIMINING XALQARO TAJRIBASI:	
O'QUV DASTURLARI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI.....	274-279
<i>Rakhmonova Dilnura Saidovna</i>	
TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARING	
KREATIV FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI:	
AMALIYOT VA TAJRIBA.....	280-286
<i>Yakubova Barno Baxtiyorovna</i>	
MUSTAQIL VA IJODIY ISHLASH FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA	
QARATILGAN MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH.....	287-290
<i>Rixsiboyev Behzod Alisherovich</i>	
IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MADANIY PLYURALIZMNING O'RNI	291-295
<i>Islamova Moxichexra Bekmurzayevna</i>	
TALABLARNI TANQIDIY FIKRLASHGA UNDOVCHI O'QITUVCHI STRATEGIYALARI	296-301

Received: 2 June 2025

Accepted: 15 June 2025

Published: 30 June 2025

Article / Original Paper

THE SOCIO-ECONOMIC AND MILITARY-POLITICAL LIFE OF THE ASHTARKHANID STATE DURING IMOMQULIKHAN'S REIGN

Nazirov Bakhtiyor Safarovich

Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences, Associate Professor.

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Denov, Uzbekistan

E-mail: b.nazirov@dtpi.uz

Mo'minov Nodirbek Botir ugli

Student of Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

E-mail: mominovnodir04@gmail.com

Abstract. It is certainly no coincidence that historians consider the reign of Imomqulixan, one of the khans of the Ashtarkhanid dynasty, to be the best period of governance. During Imomqulixan's era, the state strengthened to some extent in all spheres, and the rule of law was established in social life. All factors threatening the integrity of the state were identified, and serious efforts were made to eliminate them. In particular, the devastating impact of nomadic tribes' invasions on the country was assessed, and even internal problems of these tribes were exploited to consistently eliminate them. The establishment of order in the state's external and internal relations stimulated the development of other sectors. This article examines the general history of the Bukhara Khanate during Imomqulixan's reign, utilizing available literature.

Keywords: Bukhara Khanate, Ashtarkhanids, Kazakh Sultans, Tashkent.

IMOMQULIXON DAVRI ASHTARXONIYLAR DAVLATINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA HARBIY-SIYOSIY HAYOTI

Nazirov Baxtiyor Safarovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Denov, O'zbekiston

Mo'minov Nodirbek Botir ugli

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Ashtarkoniylar sulolasining xonlaridan bo'lgan Imomqulixonning hukmronlik davrini tarixchilar tomonidan eng yaxshi boshqaruv davri deb topilishi albatta bejiz emas. Imomqulixon davrida davlat hamma sohada bir qadar mustahkamlanib, ijtimoiy hayotda qonun ustuvorligi belgilandi. Davlat yaxlitligiga xavf soluvchi barcha omillar aniqlanadi va bartaraf etish ishlari jiddiy olib borildi. Ayniqsa ko'chmanchi qabilalarining bosqini yurtni naqadar xonavayron qilish ta'siri baholanib, ularni izchil bartaraf etish uchun hatto qabilalarining ichki muammolaridan ham foydalanildi. Davlatning tashqi va ichki munosabatlarida tartib o'rnatilishi, boshqa sohalarning rivojlanishiga turki berdi. Ushbu maqolada Imomqulixon davrida Buxoro xonligining umumiy tarixi adabiyotlardan foydalangan holda ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Buxoro xonligi, Ashtarkoniylar, Qozoq sultonlar, Toshkent.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI5Y2025N07>

Kirish. Bizga ma'lumki Shayboniyilar sulolasining oxirlarida hukmronlik qilgan Abdullaxon II vafotidan atigi uch yil o'tgandan so'ng Shayboniyilar sulolasi ham barham topdi. 1601-yildan boshlab Ashtarkoniylar sulolasining hukmronligi o'rnatildi. Bu sulola rasmiy ravishda 1601-1756-yillar oralig'ida hukmronlik qilgan. Ashtarkoniylar sulolasi Chingiziylarg'a mansub bo'lib, XV asrning oxirlarida Osiyo qit'asining shimalida joylashgan Volga daryosi havzasida mavjud bo'lgan Ashtarkon (Hoji Tarxon) xonligida hukmronlik qilgan. Bu xonlikni Ivan Grozniy 1555-1556-yillar davomida egallab oladi. Sulola hukmdori Yormuhammad Sulton oila-a'zolari bilan birga Buxoroga keladi. Jonimuhammad, Abbas, Tursun Muhammad, Pirmuhammad sultonlar kabi Yormuhammad Sultonning o'g'illari bor edi. Bu davrda Buxoro hukmdori Abdullaxon II ning otasi Iskandar Sulton edi. Iskandar Sulton ularni hurmat ila kutib oladi va Yormuhammadning o'g'li Jonimuhammadga o'z qizi Zuhrabegimni nikohlab beradi. Jonibek Sulton va Zuhrabegim uch o'g'il farzand ko'rishadi. Ularning ismi Dinmuhammad, Boqimuhammad va Valimuhammad edi. XVI asrning boshlarida Abdullaxon II dan so'ng munosib xon qolmaydi. Davlat esa boshboshdoqliklarga to'lib ketgan edi. Shunday paytda Buxoro zodagonlari Jonibek Sultonga Taxtni taklif etishadi, biroq Jonimuhammad taxtni katta o'g'li Dinmuhammad foydasiga rad etadi. Dinmuhammad Obivardda hokimlik qilar edi. U Buxoroga qaytish paytida Eron qo'shini bilan bo'lgan to'qnashuvda halok bo'ladi. Shu tariqa taxt Jonimuhammadning ikkinchi o'g'li, Samarqand hokimi bo'lgan Boqimuhammad Sultonga beriladi. U Pirmuhammad II ni taxtdan olib tashlaydi va (1601-1605) taxtga o'tiradi. Tarixda esa bir yarim asr hukmronlik qilgan Joniyalar yoki Ashtarkoniylar deb atalgan sulola hukmronligi boshlanadi. Boqimuhammadnidan so'ng ukasi Valimuhammad taxtga keladi. Afsuski u Abbas I bilan aloqa bog'lab ba'zi viloyatlar bo'yicha 1607-yilda sulh imzolaydi. Butun Xuroson esa Safaviylarga o'tib ketadi. 1611-yilda yilda Samarqand atrofida Boqimuhammadning o'g'li Imomqulixon va Valimuhammad o'rtasida bo'lgan urushda Valimuhammad mag'lubiyatga uchrab halok bo'ladi. Taxtga esa Imomqulixon keladi [1, 212-214 betlar].

Material va tadqiqot usullari

Imomqulixonning yashagan davri (1589-1644), hukmronlik davri esa (1611-1642). Buxoro xonligining uchinchi hukmdori. Otasi Dinmuhammad bo'lgan. Dinmuhammad 1599-yilda halok bo'lganda Imomqulixon 10 yoshda bo'lgan. Imomqulixon ota tarbiyasini ko'p ko'rmaydi. Amakilari davrida ma'lum hududlarning idorasi bilan shug'ullangan.

Imomqulixonning boshqaruvi davrida, davlat ijtimoiy hayotda ulkan muvaffaqiyatlarga erishganligi aytildi. Bu haqda quyidagi manbadan bilishimiz mumkin: "*Imomqulixon qiynalganlar, nochorlar ishini yengillashtirdi. Shikoyat bilan kelganlarni orqaga qaytarmadi. Uning davrida juda qiynalgan insonlar qolmadi. Chiqargan buyruqlarini so'zsiz bajarilishi ustida amaldorlarni qattiq nazoratda tutardi. Kech tushushi bilan oddiy libos kiyib vazir va qo'riqchilar bilan birga bozorga borar, oddiy xalq ahvolidan xabardor bo'lib turardi. U ulamo, abado va shoirlar bilan ko'p suhbat qurardi, hukmdorlik libosi o'rniga darveshlik libosini ko'p kiyardi. Xalq dardini bilish uchun vaziri Nodir devonbegi va yaqin mahrami Abdulvose bilan shahar aylanar edi. Xalq dardini bilgani uchun ham uning hukmronlik davrida Buxoro xonligida biron ta ham katta xalq qo'zg'oloni ko'tarilmadi* (Toshkentdagi qo'zg'olondan boshqa, uning sababi boshqa voqealarga bog'liq) [2, 39-41 betlar].

Imomqulixon hukmronligi davrida Ashtarkoniylar nisbatan murakkab yo'lni bosib o'tadi. Bir tomondan ko'chmanchi qabilalarga urush olib borgan bo'lsa, yana bir tomondan taxt uchun kurashuvchilarga qarshi janglar olib boradi. Biroq Imomqulixon xonlikda hukm

surayotgan qirg'inbarot urushlarga nisbatan chek qo'ydi. Markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun ayovsiz kurash olib bordi. Davlat yaxlitligiga putur yetkazovchi har qanday siyosiy jarayonda qat'iyat va oqillik bilan ish yuritdi [3, 123 bet]. Ashtarxoniyolar sulolasidan chiqqan Imomqulixon o'z amakisi, ayrim Xuroson viloyatlari uchun Eron bilan va shimolda Qozoq biylari bilan urushlar olib bordi. Ular bilan bo'lgan to'qnashuvlarda g'alabaga erishib siyosiy mavqeyini mustahkamlab oladi [4, 12 bet].

Natijalar va ularning muhokamasi. Imomqulixon mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida o'zboshimcha yurt hokimlar harakatini susaytirishga erisha oldi. To'g'ri u Xuroson va Xorazmni bosib ololmadi, lekin Movarounnahrga nisbatan shimoldagi shaharlar bo'lmish Turkiston, Andijon va ayniqsa Toshkentni Qozoq, Qalmiq va boshqa ko'chmanchi qabilalarga ham berib qo'ymadni. Ba'zida ayyorlik qilib ko'chmanchilarning kuchidan Eron shohlariga ham qarshi foydalandi. Bir so'z bilan aytganda Imomqulixonning harbiy yurishlaridan maqsadni quyidagicha tushunishimiz mumkin, ya'ni o'zga yerlarni bosib olishdan ko'ra, nazoratidagi yerlarda kuchli markazlashgan davlat tuzishdir. To'g'ri Xuroson, Xorazm va atrofdagi hududlar ham Buxoroga qarashli bo'lгandir. Lekin ularni qo'shib olishdan ko'ra, avval o'zining tarkibidagi hududlarni chiqib ketmaslikka yo'l qo'ymaslik tabiiy bir holat. Boshqa hududlarni bosib olish esa keyingi darajali vazifadir.

Imomqulixon Toshkentda nazoratga olgandan so'ng bu yerga o'g'li Iskandar Sultonni hokim qilib saylaydi. Iskandar Sulton ancha vaqtadan beri boshi urushlardan chiqmagan va vayron bo'lgan shaharni tiklash uchun aholidan ko'proq soliq undirishni boshlaydi. Toshkentliklar Iskandar Sultonning talonchiligiga qarshi qo'zg'olon bilan javob beradi. Bu qo'zg'olonlarda Iskandar Sulton o'ldiriladi. Buning natijasida Imomqulixon o'g'lining xunini olish uchun 1613-yilda Toshkentda juda katta qirg'inbarot o'tkazadi. Qasam ichgandek otimning uzangisi qonga botmaguncha qon to'kishni to'xtatmayman degan qasamini buzmaydi (Qirg'in nihoyatda ko'payib ketganligidan kiyin bu qasam ruhoniylarning maslahati ila boshqa yo'l bilan ado etiladi).

Imomqulixon ba'zida qozoq sultonlar bilan ham ittifoq holatda harakat qilishga ham to'g'ri keladi. Sirdaryo bo'yidagi yerlar Eshim sulton boshqaruviga beriladi. Lekin Qozoq sultonlar shunday bo'lsa ham talonchilik yurishlaridan voz kechmaydi. Tushunadiki Imomqulixon ularni bir yoqlama qilmay mamlakat shimoliy sarhadlarini barqarorligini taminlay olmasligini. Imomqulixon Qalmiqlar bilan ittifoqlikda Talas vodisida Qozoq xonligiga juda qaqqhatqich zarba beradi va g'alabaga erishadi. Lekin Biroz vaqtdan so'ng shimolda Jung'orlarning Oyrat xonligi (1635-1758) tashkil topishi Buxoro xonligi uchun bir muncha yomon vaziyatni vujudga keltirdi. Endilikda Jung'orlar Qozoqlar bilan birikib Buxoro xonligiga qarshi tez-tez talonchilik yurishlarini olib bordi. Mamlakatning xo'jaligiga, ijtimoiy-madaniy hayotidagi bu hodisa jiddiy zarba berdi. Bu yurishlar davomida Qozoqlarning Movarounnahr hududiga ko'chib o'tishi ham kuzatildi [5, 213-217 betlar].

Imomqulixon o'ttiz yildan ko'proq vaqt davomida davlatni idora qildi. Bu vaqt Boqimuhammad, Valimuhammad yoki o'zidan keyin Nodir (Nazr) Muhammad davrlariga qaraganda ancha ko'p vaqt hisoblanadi. Imomqulixon xonlik yillari markaziy hokimiyat mustahkam, boshqaruvda barqarorlik ta'minlandi. Imomqulixonning 1610-yillarda Qozoq va Qalmiqlarni Qoratog'-yu Ashpara tomonlarga quvib yuborishda, ukasi Balx hokimi Nazr (Nodir) Muhammad ham yordam bergenligi ma'lum. Shu davrda mamlakatning boshqa sarhadlari ham tinch emas edi. Marhum amakisi Valimuhammadxonning Hirotda panoh topgan o'g'li Rustam

Sulton Nazr (Nodir) Muhammadxonning Balxda emasligidan foydalanib, u yerga yurish qiladi. Rustam Sulton hech qanday natijaga erishmagani bilan ham, bunday yurishlarning sulolaviy doirada bo'lib turushi, taxt uchun kurashlarning takrorlanishi xavfli hol edi. Bu hodisalar bo'lib turgan vaqtarda, 1630-yillarda Ashtarkoniylarning Boburiylar bilan ham munosabatlarida taranglik kuzatiladi. Bu ziddiyatlar Xazorajot, Kobul masalasida va Rustam sultonning Shibirg'on, Andxud (1620), Chechaktu (1622), Yabag'u, Juzjon (1631) tomonlarga hamlasi, ukasi Nazr (Nodir) Muhammadxonning Bolo Murg'ob Xirot va Mashhad tomonlarga yurushi bilan bog'liq bo'lgan. Imomqulixon siyosatida Buxoro xonligining asosiy tashqi muammolari bo'lgan Qozoqlar, Qalmiqlar, Eron, Boburiylar bilan urushlardan ko'ra diplomatik yo'llar, elchilik aloqalarini olib borish ustuvor bo'lgan. Elchilik aloqalarini ham olib borgan albatta [6, 260-270 betlar].

Imomqulixonning olib borgan urushlari natijasida birinchidan, mamlakatning markazlashuvi kuchaygan bo'lsa, ikkinchidan Davlat hududi Shimoliy-sharqqa qarab ham kengaydi. Toshkent, Farg'ona vodiysi singari hududlar qo'shib olindi. Bu davrda xon hokimiyatining mavqeyi oshdi, ichki vaziyat esa birmuncha yaxshilandi. Lekin afsuski Imomqulixondan kiyin Nodir Muhammad, Subxonqulixon hukmronligi davrida mamlakatning siyosiy hayoti izdan chiqdi. Bu holat ijtimoiy-iqtisodiy va harbiy sohalar rivojiga ham kuchli zarba berdi [7, 170-178 betlar].

Imomqulixon oddiy aholini ahvolini yaxshilash uchun ko'plab obodonchilik ishlarini olib bordi. 1614-1615-yillarda Qashqadaryodan Qarshi cho'liga kanal qazib chiqarildi. 1633-yilda Qo'shxo'rg'onda ham kanal qazilgan. Buning oqibatida qarovsiz bo'lgan qishloqlar va yangi ekin yerlar o'zlashtirilgan. Sug'orish tizimlari doimiy ta'mirlanar, muntazam tozalanib turilardi. 1617-yilda Registon maydonida Poyandabiy masjidi qurilgan. Yigirma yillardan so'ng, aniqrog'i 1637-yilda Mag'oki Ko'rpa masjidi ham bino qilingan. Imomqulixon hukmronlik qilgan davrda Samarqand hokimi Yalangto'shbiy Bahodir bo'lgan. U nihoyatda boy va Imomqulixonning sodiq amaldorlaridan bo'lgan. Yalangto'shbiy Bahodir Samarqandda Registon maydonini qurilishiga va ta'mirlanishiga homiylik qiladi. Aynan shu davrda Registon hozirgi ko'rinishda shakllangan. Sherdor madrasasi esa Imomqulixon hukmronlik yillarida bunyod etilgan. Imomqulixon hukmronlik davrida yana ko'plab obodonchilik ishlari olib borilgan. Xususan, 1612-1613-yillarda Qozi Soqiy madrasasi qurilgan bo'lsa, Sayyid Ahmadxo'ja madrasasi esa 1637-1638-yillarda bunyod etilgan.


Imomqulixon hukmronlik yillarida elchilik aloqalari ham faol rivojlandi. Imomqulixon Sibir bilan elchilik aloqalarini yo'lga qo'yib, u yer orqali Rus davlati bilan elchilik munosabatini olib borishga harakat qildi. 1622-yilda Chobak Balikov boshchiligidagi elchilarni Sibirga, Tyumenga jo'natdi. Chobak Balikov xon xatini Rus podshosiga yetkazadi. Bu elchilikning natijasi sifatida 1620-yilda Mixail Fyodorovich elchi Ivan Xoxlovni Imomqulixon saroyiga elchi qilib jo'natadi. Elchi maktubida Buxoro xonligi savdogarlarining Qozon, Astraxan va boshqa hududlarda savdo qilish imkoniyati berilganligi ma'lum qilingan edi. 1634, 1638-1642-yillarda ham elchilik aloqalari bo'lgan.

Imomqulixon 1614-yilda Boburiy hukmdor Jahongir saroyiga ham elchi jo'natgan. 1625-yilda esa Jahongir o'z elchisi Hakim Hoziq boshchiligidagi elchilarni Buxoroga jo'natgan. O'zbekxo'ja boshchiligidagi Imomqulixon elchilari 1625-yilda Kashmirda bo'ladi. XVII-asrning 20-yillarida Usmoniyalar elchilari ham Buxoro xonligida bo'lganligi haqida tarixiy hujjatlardan bilishimiz mumkin. Sulton Ahmad IV Bag'dodni Erondan qaytarib olish uchun Imomqulixon

saroyiga 1638-yilda elchi yuboradi. Biroq Imomqulixonning Eronga qarshi kurashidan manfaatli joyi yo'qligi uchun qaytarib elchi yubormagan. Bundan tashqari Imomqulixon Qozoq biylari, Eron bilan ham xat-xabar almashgan.

Xulosa. Imomqulixon hukmronligining oxirlarida ko'zi ojiz bo'lib qoladi. Bundan foydalangan amaldorlar va hokimlar mustaqil bo'lishga harakatlari kuchayadi. Manbalarda Imomqulixonning Iskandar Sultondan boshqa, Pir Muhammad sulton va Bahrom Mirzo ismli o'g'illari bo'lgan. Imomqulixon davlatning yaxlitligini ta'minlash, ko'zi ojizligidan boshqa amaldorlarning foydalanmasligi uchun taxtdan voz kechadi. Taxtni o'g'illari bo'lsa ham, ukasi Nodir Muhammadga beradi va o'zi haj ziyoratini amalga oshirish uchun Makka hamda Madina shaharlariga jo'nab ketadi. Xon safariga Nodir Devonbegi va Muhammad Do'st hamrohlik qilgan. Imomqulixon Mashhad va Isfahon shaharlarida Eron Safaviylari shohining nufuzli va hurmatli qabul marosimida bo'ladi. Imomqulixon Eron orqali Makka va Madina shaharlariga tashrif buyurib haj amallarini bajaradi. Madinada ikki-uch yil yashaydi. Madinada Buxorodan borgan kishilar dam olishi uchun Chorbog' va Makkada, Ka'baga kiraverish chog'ida tutqichi oltin va kumushdan bo'lgan yog'och zina qurdiradi. Imomqulixon 1644-yilda Arofat tog'ida vafot etadi va Baqiya qabristonida dafn etiladi. Imomqulxon janoza marosimiga 600 ming kishi atrofida odamlar ishtirok etgan ekan. Imomqulixonning yuqoridagi buyuk xizmatlari uchun ham Ashtarxoniyalar sulolasining eng buyuk hukmdorlaridan biri ekanligiga shubha yo'q albatta. Mol-dunyoga mehr qo'ymagan, Davlat yaxlitligini ta'minlash uchun har qanday qattiqqo'llikka ham yo'l qo'ygani bilan e'tiborga loyiq. Mamlakat shimolidagi xavfsizligi uchun Qozoq sultonni, Eshim sultonning qizi bo'lmish Oyxonimga uylangan va ittifoqchilikka erishgan [8, 45-52 betlar].

Aholining asosiy qismi dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq, chorvachilik sohalari bilan shug'ullangan. Ularning taraqqiyoti uchun imtiyozlar va imkoniyatlar berilgan. Ular uchun urushlar, goho sulhlar bilan siyosiy tinchlikka erishgan. Albatta har qanday soha taraqqiyoti uchun albatta tinchlik kerak. Savdo-sotiqning rivoji uchun turli davlatlar bilan elchilik aloqalarini olib borgan va o'zga yurtlarda savdo qilish huquqlarini boshqa yurt hukmdorlaridan savdogarlarga olib bergen. Aholining yaxshi yashashligi uchun doimiy xabardor bo'lgan. Juda qiynalgan qatlamlarga g'amxo'rlik qilgan. Imomqulixon davrida bechora va o'ta nochor aholi qolmagan deyiladi. Imomqulixonning tariximiz oldidagi yana bir buyuk xizmati shuki, Buxoro xonligini shimoliy qismlaridagi hududlarning, shaharlarning birinchi galda Toshkentning boshqa qabilalar tasarrufiga o'tkazmaganligi, uning uchin urushlar olib borganligidir. Bir so'z bilan aytganda Imomqulixon davlatchiligidan tarixi uchun buyuk qahramonlardan biri bo'lishga har tomondan munosib insonlardandir.



Imomqulixon. Eronda chizilgan rasm.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Eshov B.J, Odilov A.A. O'zbekiston tarixi II-kitob. Toshkent, Donishmand ziyosi. 2020.-B. 212-214
2. Zamonov Akbar, Subhonov Farruh. Buxoro Xonligining Ashtarxoniy hukmdorlari. Toshkent. 2021.-B. 39-41
3. Alimova Raxima Ruskulovna. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi. Toshkent. 2023.-B. 123
4. Ziyoyev Xamid. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. Toshkent. 1998.-B. 12
5. Eshov B.J., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi II-kitob. Toshkent, Donishmand ziyosi. 2020.-B. 213-217
6. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. Toshkent. Sharq. 2001.-B. 260-270
7. Sagdullayev A, Aminov B, Mavlonov U, Norqulov N. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. Toshkent. Akademiya. 2000.-B. 170-178
8. Zamonov Akbar, Subhonov Farruh. Buxoro Xonligining Ashtarxoniy hukmdorlari. Toshkent. 2021.-B. 45-52

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº S/5 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).